



“TASDIQLAYMAN”

Ma'mun universiteti rektori

 **A.O.Nurjonov**

29 03 2024 yil

“MA'MUN UNIVERSITETI STIPENDIYASI” TANLOVINI O'TKAZISH TO'G'RISIDA NIZOM

Ma'mun universiteti Kengashining 2024 yil 29 mart dagi

8 -son bayoni bilan tasdiqlangan

Xiva – 2024 yil

“Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlovini o'tkazish to'g'risida

NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu nizom “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlovini o'tkazish va uni tayinlash tartibini belgilaydi.

1.2. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlovi Ma'mun universiteti, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Xorazm viloyati boshqarmasi hamda viloyatdagi boshqa Oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda viloyatda ta'lim olayotgan iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida bir yilda bir marotaba o'tkaziladigan tanlov hisoblanadi.

1.3. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlovida “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi”, “Yoshlar ittifoqi stipendiyasi”, “Viloyat hokimi stipendiyasi”; davlat mukofotlari sovrindorlari, tanlovning o'tgan mavsumida g'olib bo'lgan yoshlar hamda darajasi jihatidan yuqori turuvchi boshqa davlat stipendiyalari (xalqaro miqyosdagi stipendiyalar) sovrindorlari ishtirok etmaydi. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlovining g'oliblari mazkur tanlovda qayta ishtirok etish huquqiga ega emas.

1.4. Tanlovning 1-yo'nalishida respublikamizdagi barcha davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari (Ma'mun universitetidan tashqari) bakalavr ta'lim yo'nalishlaridan (30 yoshgacha bo'lgan) 3-bosqichda tahsil olayotgan talaba yoshlar orasida aniq fanlar, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlar kesimida; 2-yo'nalishida respublikamizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilari ishtirok etishlari mumkin.

1.5. “Ma'mun universiteti stipendiyasi”ga tanlov bir yilda bir marotaba o'tkaziladi.

1.6. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” sovrindorlari tanlov yo‘li bilan aniqlanadi. Tanlov amaldagi qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizomga rioya etgan holda o‘tkaziladi.

1.7. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” bilan taqdirlash universitet Kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

2-bob. Maqsad va vazifalari

2.1. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” tanlovi iqtidor va iste’dod sohiblari bo‘lgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadlarini ko‘zlagan holda tashkil etiladi.

2.2. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” tanlovining asosiy vazifasi turli yo‘nalishlarda tahsil olish davomida o‘z iqtidori va qobiliyatini namoyon eta oladigan hamda vatan ravnaqi va taraqqiyotiga o‘zining munosib hissalarini qo‘sha oladigan yoshlarni izlab topish, ularning ijodini respublika va xalqaro darajaga ko‘tarish, yangi iqtidor va iste’dod qirralarini ochish hamda yoshlar orasida sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirishdan iborat.

3-bob. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” tanlovining o‘tkazilishini

tashkil etish va hujjatlarni qabul qilish

3.1. “Ma’mun universiteti stipendiyasi”ga tanlov o‘tkazuvchi universitet komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – komissiya deb yuritiladi) tarkibi universitet Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi, universitet Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etadi. Tanlovini tashkil etishda asosiy ishchi organ komissiya hisoblanadi.

3.1. Komissiya zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

– “Ma’mun universiteti stipendiyasi”ga o‘tkaziladigan tanlov jarayoniga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

- “Ma'mun universiteti stipendiyasi”ga talabgorlarni ro'yxatga olish va hujjatlar qabul qilish.

- tanlovning yakuniy bosqichiga tayyorlanish va amalga oshirish.

Komissiya o'z faoliyatini adolatlilik va ochiq, oshkora tarzda tashkil etadi.

3.2. Komissiya a'zolari tomonidan “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanloviga talabgorlarni ro'yxatga olish va hujjatlarini qabul qilish vaqti va joyi haqida ijtimoiy tarmoqlar, telegramdagi universitet rasmiy kanali hamda internet saytlari orqali e'lon beriladi.

3.3. Talabgorlar tomonidan ushbu nizomning 4-bobida ko'rsatilgan tartibda hujjatlar komissiyaga taqdim etiladi.

3.4. Komissiya quyidagi huquqlardan foydalanadi:

- zaruriyatga qarab zimmasiga yuklatilgan vazifalarning belgilangan muddatda va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun mutaxassislarni jalb etish va ishchi guruhlar tuzish;

- oliy ta'lim muassasalaridan tanlovga daxldor bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish;

- komissiya yig'ilishlariga tanlov jarayonini tashkil etishga aloqador bo'lgan rahbarlarni taklif etish va ularning hisobotlarini eshitish;

- tanlov yakunlari bo'yicha qaror qabul qilish;

- komissiya yig'ilishi, unda jami a'zolarning uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Muhokama etilgan masalalar bo'yicha qarorlar komissiya a'zolarining ochiq, ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovoz berishda ovozlar soni teng bo'lan holda komissiya raisiga ovoz berish huquqi beriladi. Komissiya yig'ilishlari yakunlari bo'yicha bayonnoma Universitet kenashiga taqdim etiladi.

3.5. Talabgorlar tomonidan ushbu nizomning 4-bobida ko'rsatilgan hujjatlar komissiyaga taqdim etiladi.

4-bob. Tanlov shartlari va hujjatlar taqdim etish tartibi

4.1. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” tanlovi 2 yo‘nalishida tashkil qilinadi. Tanlovning 1-yo‘nalishida barcha viloyatlardagi oliy ta’lim muassasalari bakalavr ta’lim yo‘nalishlari 30 yoshgacha bo‘lgan 3-bosqich, tibbiyot OTM larining 5,6-bosqich talaba yoshlari, 2-yo‘nalishida Respublikadagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari va abituriyentlari ishtirok etishlari mumkin. Tanlov 2 bosqichda o‘tkaziladi (1-bosqich mart oyining 1-yarmi, 2-bosqich mart oyining 2-yarmi).

4.2. “Ma’mun universiteti stipendiyasi” tanlovida ishtirok etishga talabgorlar tomonidan komissiya a’zolariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Pasport, guvohnoma yoki ID karta nusxasi;
2. Ma’lumotnoma (obyektivka);
3. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi to‘g‘risida tasdiqlangan ma’lumotnoma:
 - transkript yoki reyting daftarchasi nusxasi;
 - tabel (umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun).
4. Tavsiyanoma (ta’lim muassasasi rahbari tomonidan, chet tillarini bilishi to‘g‘risidagi milliy yoki xalqaro sertifikat borligi ko‘rsatiladi).
5. Erishgan yutuqlar (guvohnomalar, ilmiy maqolalari uchun sertifikat, til sertifikat, diplom, patent va hakozo, ilmiy (ijodiy) ishlar ro‘yxati va ularning bosma nusxalari).
6. 4 ta 3,5x4,5 va 2 ta 10x15 rasm.
7. Respublika yoki xalqaro tanlovlarda, fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lganligi to‘g‘risida hujjat nusxasi (agar mavjud bo‘lsa).
8. Barcha hujjatlar bir nusxada taqdim qilinadi. Hujjatlarning har bir to‘plami jildga joylanadi, har bir jild muqovasida ishni taqdim qilgan muassasaning nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, ishning nomi ko‘rsatiladi;

9. Zarur hollarda Komissiya tomonidan stipendiyaga tavsiya etilgan talabgorlardan qo'shimcha hujjatlar talab etilishi yoki hujjatlar qaytarilishi mumkin.

4.3. Tanlovga hujjatlar har yilning mart oyining birinchi yarmida qabul qilinadi.

4.4. "Ma'mun universiteti stipendiyasi" tanlovi talabgorlari quyidagi talablarga nizomning 4.2-bandiga ko'ra taqdim qilingan hujjatlarning soni, savsiyasi, erishgan natijalariga qaraladi.

4.4. Ishchi guruh tomonidan ko'rib, o'rganib chiqilgan talabgor yoshlar hujjatlari tashkiliy qo'mitaga topshiriladi.

5-bob. Tanlovda nomzodlar iqtidorini baholash

5.1. Tanlov ishtirokchilarining iqtidori quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- fan olimpiadalari va turli tanlovlardagi ishtiroki;
- yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;
- kamida ikkita e'lon qilingan ishlar (asarlar)ning mavjudligi;
- xorijiy tillaridan birini va o'zbek tilini bilishi;
- o'zbekiston tarixini bilishi;
- axborot texnologiyalaridan savodxonlik darajasi.

5.2. G'oliblar nomzodlarning iqtidorini ko'rsatuvchi hujjatlarni o'rganish, suhbatlar o'tkazish, sinov, savol-javob yo'li bilan tanlanadi. Iqtidor yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon o'tkazilishi ham mumkin.

5.3. Nomzodlarning iqtidori 100 ballik tizim bilan baholanadi. Eng ko'p ball to'plashga muvaffaq bo'lgan nomzodlar tanlov bosqichi g'olibi hisoblanadi.

5.4. Apellyatsiya komissiyaning vazifalari;

– apellyatsiya komissiyaning tarkibi Ma'mun universiteti Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi;

– Apellyatsiya komissiyaning tarkibi 5 kishidan iborat bo'ladi;

– Apellyatsiya komissiyasi ishtirokchilarning shikoyatlarini tanlov natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida ko'rib chiqadi;

– Apellyatsiya komissiyasi qabul qilgan qaror tegishli ravishda bayon bilan rasmiylashtiriladi.

6. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

6.1. Tanlov g'oliblariga:

1-yo'nalish. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” savrindori guvohnomasi beriladi va ularga bir o'quv yili (sentabr oyidan iyun oyigacha) har oy bazaviy hisoblash miqdorining 3 barobari miqdorida qo'shimcha stipendiya to'lanadi.

2-yo'nalish. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” sovrindori guvohnomasi beriladi va g'olibning tanloviga binoan Ma'mun universitetida kunduzgi ta'lim shaklida grant asosida (universitetda mavjud bo'lgan yo'nalishlarga) talabalikka qabul qilinadi.

6.2. G'oliblarni taqdirlash marosimi har yili 10-sentabrgacha amalga oshiriladi. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” sovrindorlari Ma'mun universiteti innovatsion jamg'armasidan moliyalashtiriladi.

6.3. Stipendiya har oyning 1- xaftasining oxirgi ish kunigacha plastik kartalar orqali sovrindorlarga yetkaziladi.

6.4. Stipendiyalar soni va grant o'rinlari universitet ta'sischisi tomonidan belgilanadi va har o'quv yil boshidagi universitet kengashida tasdiqlanib saytda e'lon qilinadi.

7. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

7.1. “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlov o'tkazish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar “Ma'mun universiteti stipendiyasi” tanlov o'tkazuvchi universitet komissiyasi tavsiyasiga ko'ra yiliga bir marta kiritilishi mumkin.

“Ma'mun universiteti stipendiyasi” nomzodlarni baholash mezonlari

t/r	Tanlov asosida saralash mezonlari	Maksimal ball	Izoh
1	Fan olimpiadalari va turli tanlovlardagi g'olibligi	20	Xalqaro-10 ball, Respublika – 10 ball, Viloyat yoki oliy ta'lim muassasasi - 5 ball.
2	E'lon qilingan ishlar (asarlar, patentlar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar)ning mavjudligi	20	Asarlar, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallardagi maqolalar va patentlar – 10 ball, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilmagan mahalliy jurnallardagi maqolalar – 5 ball. Har bir ish bo'yicha ballar hammualliflar soniga bo'linadi.
3	Chet tilini bilishi	20	B2 daraja (10 ball), C1 daraja (20 ball). Hamda ularga tenglashtirilgan sertifikatlar.
4	O'zbek tilini bilish darajasi	10	Suhbat asosida. Ifodali va obrazli fikrlash darajasi hamda uni og'zaki nutqda aks ettirishiga qarab

			baholanadi.
4	Yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish	5	Xalqaro-2 ball, Respublika – 1 ball, Viloyat yoki oliy ta’lim muassasasi – 0.5 ball. Har bir ish bo‘yicha ballar hammualliflar soniga bo‘linadi.
5	Fanlarni o‘zlashtirish darajasi	5	Reyting daftarchasi yoki tabeldagi ballning o‘rtacha qiymati orqali hisoblanadi.
6	O‘zbekiston tarixidan bilimi	10	Suhbat orqali aniqlanadi.
7	Axborot texnologiyalaridan savodxonligi	10	Maxsus test savollari orqali.
Jami:		100	